

**YURIDIK VA JISMONIY
SHAXSLARNI GAZ
TARMOQLARIGA ULASH
BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

**Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha
uslubiy qo'llanma.** T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi,
2025-yil. – 21 bet.

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasida gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Qo'llanma fuqarolar, korxona hamda tashkilotlar uchun gaz tarmoqlariga ulanishning barcha bosqichlarida – ariza topshirishdan tortib, texnik shartlarni olish, loyihalash, montaj ishlarini olib borish va yakuniy qabul qilishgacha bo'lgan jarayonni tushunishda amaliy yordam berishga mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

MUNDARIJA

Gaz tarmoqlariga ulanish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar	4
Kirish	5
Murojaatlarni shakllantirish va yuborish.....	7
Texnik shartlarni ishlab chiqish va berish, tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etish	9
Gaz ta'minoti loyihasini ishlab chiqish va kelishish va iste'molchilarni gaz tarmoqlariga ulash	10
Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash, gaz ta'minoti shartnomasini tuzish va tabiiy gazni yetkazib berish	Ошибка! Закладка не определена.4
Yakunlovchi qoidalar	17
Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash	
SXEMASI	18

Gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-sonli "Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 2-apreldagi 134-sonli "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	

KIRISH

Gaz ta'minoti – mamlakatimiz iqtisodiyoti va aholi turmush darajasining barqaror rivojlanishidagi muhim omillardan biridir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va iqtisodiy sohalarni modernizatsiya qilish dasturlari doirasida, gaz infratuzilmasi va unga ulanish jarayonlarini yanada takomillashtirish, bu sohani boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish hamda xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, qoidalar va texnik me'yoriy hujjatlariga asosan, yuridik va jismoniy shaxslarni gaz ta'minoti tarmoqlariga ulash tartibi, shartlari va talablarini birlashtirgan, amaliy yordam ko'rsatishga qaratilgan. Qo'llanma mazkur sohada ishtirok etuvchi barcha tomonlar – gaz tashkilotlari, loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun aniq va tushunarli ko'rsatma vazifasini bajaradi.

Iste'molchilarni gaz tarmoqlariga ulash bosqichlari



texnik shartlarni ishlab chiqish;



gaz ta'minoti loyihasini ishlab chiqish va kelishish;



qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish;



tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash;



gaz ta'minoti shartnomasini tuzish;



sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish;



tabiiy gazni yetkazib berish.

MUROJAATLARNI SHAKILLANTIRISH VA YUBORISH

Iste'molchilar gaz tarmoqlariga ulanish uchun Davlat xizmatlari markazlariga o'zi kelib murojaat etadi yoki YIDXPda davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi.



Maishiy iste'molchilar uchun xonadonlar, shaxsiy uy-joylar, dala hovlilar, yordamchi xo'jaliklar va shaxsiy foydalaniladigan tomorqa bog' obyektlarini gaz tarmoqlariga ulash jarayonida texnik shart ishlab chiqish **talab etilmaydi** hamda tegishli litsenziyaga ega bo'lgan loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan loyiha hujjatlari (hududiy gaz ta'minoti tashkiloti bilan kelishilmasdan) qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun **asos bo'ladi**.



Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun **yig'imni to'lamaslik** davlat xizmati ko'rsatishni **rad etish** uchun asos hisoblanadi.

So'rovnomada gaz iste'molining yuklama hajmi noto'g'ri ko'rsatilgan taqdirda, HGK xodimlari obyektni joyiga chiqib o'rganadilar yoki so'rovnomada ko'rsatilgan iste'molchining telefon raqami orqali ariza beruvchi bilan bog'lanib obyektning ehtiyojiga aniqlik kiritgan holda yuklama hajmini aniqlaydilar.



Davlat xizmatlarini ko'rsatishni boshqa asoslar bo'yicha rad etish qat'iyon **taqiqlanadi**.

O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazlari so'rovnoma to'ldirilgan vaqtdan boshlab real vaqt rejimida uni HGTTga texnik shartlarni ishlab chiqish uchun yuboradi.

YIDXP orqali murojaat qilinganda esa so'rovnoma avtomatik tarzda HGTTga texnik shartlarni ishlab chiqish uchun yuboriladi.

TEXNIK SHARTLARNI ISHLAB CHIQISH VA BERISH, TIJORAT TAKLIFLARI VA SHARTNOMALAR LOYIHALARINI TAQDIM ETISH

Hududiy gaz ta'minoti tashkiloti so'rovnoma tushganidan so'ng **uch ish kuni** mobaynida QR-kod qo'yilgan texnik shartlarni tuman gaz ta'minoti bo'limlari tomonidan taqdim etiladigan o'rganish xulosasiga asosan ishlab chiqadi va elektron shaklda Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki iste'molchiga YIDXP orqali yuboradi yoxud ularni ishlab chiqishni rad etadi.

Hududiy gaz ta'minoti tashkiloti loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'zining tijorat takliflarini hamda shartnomalari loyihalarini ham yuborish huquqiga ega. Bunda, HGTT o'zining tijorat takliflari hamda shartnomalari loyihalarida loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirishning muddatlari va tegishli xarajatlarining kalkulyatsiyasini aniq ko'rsatadi.



Iste'molchining obyekti joylashgan hududda quvvati HGK tomonidan iste'molchiga tabiiy gazni yetkazib berishni ta'minlaydigan gaz taqsimoti tarmog'ining mavjud emasligi texnik shartlarni ishlab chiqishni **rad etish** uchun asos bo'ladi.

Boshqa asoslarga ko'ra texnik shartlarni ishlab chiqishni rad etish qat'iyon **taqiqlanadi**.



Ishlab chiqilgan texnik shartlar iste'molchining aloqa qilinadigan ma'lumotlari ilova qilingan holda loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'zlarining tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etishi maqsadida loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish tashkilotlarining tanishishi uchun YIDXPda joylashtiriladi.

Gaz ta'minoti loyihasini ishlab chiqish, kelishish,

Gaz ta'minotini loyihasini ishlab chiqish va kelishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:



Gaz ta'minoti loyihasini ishlab chiqish uchun iste'molchilar HGTT yoki boshqa loyihalash tashkilotlari bilan loyihalash ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalar tuzish mumkin bo'ladi.



Loyihalash ishlari loyihalash ishlarini amalga oshirish bo'yicha shartnomalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.



Loyihalash tashkiloti loyihalash ishlarini amalga oshirganidan so'ng gaz ta'minoti loyihasini kelishish uchun Davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali murojaat qiladi. O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi xodimi loyihalash tashkiloti nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa loyihalash tashkiloti davlat xizmatidan foydalanish uchun so'rovnomani elektron tarzda to'ldiradi va uni o'zining ERI bilan tasdiqlaydi.

So'rovnoma gaz ta'minoti loyihasini kelishish uchun HGTTga avtomatik tarzda yuboriladi.

(sana)

(raqam)

**Gaz ta'minoti loyihasini hududiy gaz ta'minoti tashkiloti
bilan kelishish uchun**

SO'ROVNOMA

**I. Kelishilayotgan gaz ta'minoti loyihasi to'g'risida
ma'lumot:**

Loyiha tashkilotining nomi:	
Telefon raqami:	
Davlat xizmatini ko'rsatish natijasini olib ketuvchi shaxsning (agar mavjud bo'lsa) JSHSHIR ma'lumotlari:	

II. Ilova qilinadigan hujjatlar:

Gaz ta'minoti loyihasi:	
-------------------------	--

Loyihalash tashkilotining ERI



HGTT so'rovnoma tushganidan so'ng **uch ish kuni** ichida gaz ta'minoti loyihasini kelishadi va kelishish natijalari yuzasidan QR-kod qo'yilgan xulosani o'zining ERI bilan tasdiqlaydi yoki rad etishning aniq



asoslari va qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda kelishishni rad etadi.

(rasmiy blankada)

"Hududgazta'minot" AJ

_____ (hududiy gaz ta'minoti tashkiloti nomi) **hududiy gaz ta'minoti tashkiloti**

Gaz ta'minoti loyihasi kelishilganligi haqida

XULOSA

20__ y. " __ " ariza raqami: ____-son

_____ ning _____-son arizasiga

(arizachining nomi yoki F.I. O.) (ariza raqami)

muvofig _____ manzilida

(obyektning manzili)

joylashgan obyekt bo'yicha gaz ta'minoti loyihasi kelishildi.

Hujjatning
haqiqiylikini
tasdiqlovchi
QR-kod



QR-kodli xulosa tasdiqlangach HGTT tomonidan gaz ta'minoti loyihasi avtomatik ravishda Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki loyihalash tashkilotiga YIDXP orqali (elektron shaklda murojaat etganda) elektron shaklda yuboriladi.

Gaz ta'minoti loyihasi HGTT tomonidan ishlab chiqilgan hollarda gaz ta'minoti loyihasini kelishish **talab etilmaydi**.



Gaz ta'minoti loyihasining texnik shartlar talablaridan chetga chiqishi gaz ta'minoti loyihasini kelishishni **rad etishga** asos bo'ladi.

Boshqa sabablarga ko'ra gaz ta'minoti loyihasini kelishishni rad etish qat'iyon **taqiqlanadi**.

Iste'molchilarni gaz tarmolariga ulash

Gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun iste'molchilar HGTT yoki tegishli litsenziyaga ega bo'lgan boshqa qurilish-montaj tashkilotlari bilan tegishli shartnomalar tuzish huquqiga ega.



Iste'molchilar qurilish-montaj ishlarini mustaqil ravishda (xo'jalik usulida) ham amalga oshirishlari mumkin.

TABIIY GAZNI HISOBGA OLISH PRIBORINI PLOMBALASH, GAZ TA'MINOTI SHARTNOMASINI TUZISH VA TABIIY GAZNI YETKAZIB BERISH

Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash va gaz ta'minoti shartnomasini tuzish gaz tarmoqlariga ulanish bo'yicha qurilish-montaj ishlari bajarilgandan so'ng quyidagi bosqichlar bilan amalga oshiriladi.



Iste'molchi davlat xizmatlari markazi yoki YIDXP orqali tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash va gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun murojaat qiladi.



Iste'molchi zarur ma'lumotlarni rasmiylashtirgandan va so'rovnoma kiritgandan so'ng ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi va imzolarni identifikatsiya qilishning tegishli vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo, Mobil-ID va boshqalar) bilan tasdiqlaydi.



Davlat xizmatlari markazlari so'rovnoma to'ldirilgan vaqtdan boshlab real vaqt rejimida uni HGTTga tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash va gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun yuboradi.



HGTT so'rovnoma tushgan kundan boshlab **bir ish kuni** mobaynida joyning o'ziga chiqib, tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash ishlarini amalga oshiradi va bu haqda dalolatnoma tuzadi.





Tabiiy gazni hisobga olish pribori plombalangan kunning o'zida HGTT rasmiylashtirilgan gaz ta'minoti shartnomasini, tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomaning bir nusxasini elektron shaklda Davlat xizmatlari markaziga yoki iste'molchiga YIDXP orqali yuboradi.'



Davlat xizmatlari markazi rasmiylashtirilgan gaz ta'minoti shartnomasi va plombalash o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnoma kelib tushgandan so'ng **bir soat** ichida bu haqida iste'molchini axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali xabardor qiladi.



Iste'molchi rasmiylashtirilgan gaz ta'minoti shartnomasi tushgandan so'ng **besh ish kuni** mobaynida uni o'zining ERI bilan tasdiqlaydi.




Iste'molchi tomonidan tasdiqlangan gaz ta'minoti shartnomasi Davlat xizmatlari markazi tomonidan HGTTga yoki iste'molchi tomonidan YIDXP orqali yuboriladi.

Tabiiy gazni yetkazib berish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



qonun hujjatlarida oldindan to'lovni amalga oshirishi nazarda tutilgan iste'molchilar uchun — iste'molchi tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kuni;

qonun hujjatlarida oldindan to'lovni amalga oshirishi nazarda tutilmagan iste'molchilar uchun — iste'molchi tomonidan tasdiqlangan shartnoma olingan kuni.



Gaz iste'moli jihozlarni sozlash-ishga tushirish ishlari hamda ulash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Texnik shartlarni, shu jumladan, qo'shimcha texnik shartlarni ishlab chiqish, berish, gaz ta'minoti loyihalarini kelishish va tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash to'lov undirilmagan holda amalga oshiriladi, davlat xizmatlari ko'rsatilganligi uchun yig'im undirilishi bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va Davlat xizmatlari markazlari ushbu Reglament talablari ijrosi bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyati ustidan, shu jumladan, YIDXP orqali, doimiy nazoratni va monitoringni amalga oshiradilar.

Iste'molchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ulash

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
I. Texnik shartlarni ishlab chiqish va berish, shuningdek, tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini taqdim etish			
1-bosqich	Iste'molchi	1. Gaz tarmoqlariga ulanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qilish yoki YIDXPda ro'yxatdan o'tish. 2. Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun yig'im to'lash.	1. Xohishiga ko'ra 2. Murojaat qilinganda
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. YIDXP	Texnik shartlarni ishlab chiqish uchun so'rovnomani HGTTga yuborish.	Real vaqt rejimida
3-bosqich	HGTT	1. QR-kodli texnik shartlarni ishlab chiqish va Davlat xizmatlari markaziga yoki iste'molchiga YIDXP orqali yuborish. 2. Loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha o'zining tijorat takliflarini va shartnomalar loyihalarini yuborish.	3 ish kuni mobaynida
4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Texnik shartlarni, shuningdek HGTTning loyihalash, qurilish-montaj va sozlash-ishga tushirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha tijorat takliflari va shartnomalar loyihalarini iste'molchiga berish.	Real vaqt rejimida

II. Iste'molchilarni gaz tarmoqlariga ulash

1-bosqich	Iste'molchi	Gaz ta'minoti loyihasini ishlab chiqish uchun HGTT yoki boshqa loyihalash tashkilotlari bilan loyihalash ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalar tuzish.	Xohishiga ko'ra (texnik shartlarni olgandan so'ng)
-----------	-------------	---	--

2-bosqich	HGTT yoki boshqa loyihalash tashkilotlari	Gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha loyihalash ishlarini amalga oshirish.	Shartnomada belgilangan muddatlarda
3-bosqich	Loyiha tashkiloti	Gaz ta'minoti loyihasini kelishish uchun Davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXPda so'rovnomani to'ldirish.	Xohishiga ko'ra (loyihalash ishlari amalga oshirilgandan so'ng)
4-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. YIDXP	So'rovnomani va gaz ta'minoti loyihasini HGTTga kelishish uchun yuborish.	Real vaqt rejimida
5-bosqich	HGTT	1. Gaz ta'minoti loyihasini ko'rib chiqish. 2. Gaz ta'minoti loyihasi kelishilganligi haqida QR-kod qo'yilgan xulosani Davlat xizmatlari markaziga yoki YIDXP orqali loyihalash tashkilotiga yuborish.	3 ish kuni mobaynida
6-bosqich	Iste'molchi	HGTT yoki boshqa qurilish-monta? tashkilotlari bilan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo'yicha shartnoma tuzish.	Xohishiga ko'ra (loyiha kelishilgandan so'ng)
7-bosqich	HGTT yoki boshqa qurilish-montaj tashkilotlari	Gaz tarmoqlariga ulash bo'yicha qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish.	Shartnomada belgilangan muddatlarda

III. Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash, gaz ta'minoti shartnomasini tuzish va tabiiy gazni yetkazib berish

1-bosqich	Iste'molchi	Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash, gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib yoki YIDXP orqali murojaat qilish.	Xohishiga ko'ra (qurilish-montaj ishlari tugatilganidan so'ng)
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. YIDXP	Tabiiy gazni hisobga olish priborini plombalash, gaz ta'minoti shartnomasini tuzish uchun so'rovnomani HGTTga yuborish.	Real vaqt rejimida
3-bosqich	HGTT		

		1. Tabiiy gazni hisobga olish priborini joyning o'ziga chiqib plombalash. 2. Davlat xizmatlari markaziga yoki iste'molchiga YIDXP orqali gaz ta'minoti shartnomasi va plombalash o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomani Davlat xizmatlari markaziga yoki iste'molchilarga YIDXP orqali yuborish.	2 ish kuni mobaynida
4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Iste'molchini gaz ta'minoti shartnomasi rasmiylashtirilganligi to'g'risida axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali xabardor qilish.	Real vaqt rejimida
5-bosqich	Iste'molchi	1. Rasmiylashtirilgan gaz ta'minoti shartnomasini tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan gaz ta'minoti shartnomasini HGTTga Davlat xizmatlari markazi tomonidan yoki iste'molchi tomonidan YIDXP orqali yuborish.	5 ish kuni mobaynida
6-bosqich	HGTT	1. Qonun hujjatlarida to'lovni oldindan amalga oshirishi nazarda tutilgan iste'molchilar uchun tabiiy gazni yetkazib berish. 2. Qonun hujjatlarida to'lovni oldindan amalga oshirishi nazarda tutilmagan iste'molchilar uchun tabiiy gazni yetkazib berish	1. Oldindan to'lov amalga oshirilgan kuni 2. Iste'molchi tomonidan tasdiqlangan shartnoma olingan kuni

[illegible]